



SUN'IY INTELLEKTNI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Shoxsanam Boltayeva

Qarshi davlat Universitute Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

Beknazarova Dilafuz

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17567955>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 08- noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 10- noyabr 2025 yil

KEY WORDS

iqtisodiyot, mehnat sun'iy intellekt, raqamli innovatsiyalar, ishlab chiqarish, moliya texnologiyalari.

ABSTRACT

Ushbu maqola rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellektni ijobiy va salbiy ta'sirlari yuzasida misollar bilan bayon etilgan. Shuningdek sun'iy intellektning ishlab chiqarish, mehnat bozori, moliya va qishloq xo'jaligi va savdoda qo'llanilib, mahsulot va tovar sifatini oshirish nazariyalari va ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olingan holda misol keltirilgan. Bunga qo'shimcha tarzda iqtisodiy-xavf xatarni oldini olish bo'yicha yechimlar qayd qilib o'tilgan. Ushbu maqolada raqamli va zamonaviy bu davrda iqtisodiyotga sun'iy intellektni ta'siri haqida ma'lumot beriladi va rivojlanishdagi strategik o'rnini tudhunishga yordam beriladi.

Raqamli va zamonaviy rivojlanib borilayotgan bu davrda sun'iy intellektsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, sun'iy intellektni inson har bir kundalik hayotida foydalanib, o'z ish samaradorligini oshirib kelmoqda. Bunday samaradorlikni barcha sohalarda qo'llanilib, zamonaviy texnologiyalar bilan ish sifati va mehnat bozorida namunali o'rin olishiga sabab ham bo'lib kelmoqda. Bunday samaradorlikni oshirish yo'llarini iqtisodiyot sohasida ham qo'llanilib kelmoqda va iqtisodiyot sohasida ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Sun'iy intellekt orqali ishlab chiqarish sifatini oshirish, biznes qarorlarini qabul qilish, xizmat ko'rsatish sohasini yaxshilash marketing strategiyalarini yanada optimallashtirish mumkin bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning raqamli iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'siri haqida keng miqyosda tushuntirib berilgan, uning mehnat bozorida, qishloq xo'jaligida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va boshqa sohalarda o'rni qay tarzda ekanligi bayon qilib o'tilgan.

Asosiy qism: Sun'iy intellekt nima va u qanday tarzda ishlab kelmoqda?

Birinchi navbatda sun'iy intellekt nima va u qay tarzda ishlaydi? Mazkur dolzarb savollarga yechim izoh bilan bayon qilsak.

Sun'iy intellekt-bu insonni aqll bilan taqlid qiluvchi inson tomonidan yaratilgan bo'lib zamonaviy dastur bo'lib, u orqali zamonaviy bilimlarni mustaqil o'rganish, fikrlash, qaror qabul qilish va turli xil insonni qiziqtirgan savollarga yechim topish funksiyalarini bajara oladi. Sun'iy intellekt quyidagi muhim yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi;

Mashinali o'rganish (Machine Learning)

Ya'ni kompyuter dasturini optimallashtirish.Masalan avtomobil ishlab chiqarish zavodlarida yo'nalishi bo'yicha zamonaviy texnologiyalar kompyuterda reja qilib quyilgan va shu tarzda ishlaydi.

Boshqa bir misol agar,inson you tubedan ko'proq inglizcha podcast eshitib foydalansa ,you tube shu podcastlarni tavsiya beradi.

Sun'iy neyron tarmoqlar (Artificial Neural Networks)

Bu sun'iy intellekt yo'nalishi inson miyasiga taqlid qiluvchi dastur bo'lib,"qatlamlardan"dan tashkil topgan bo'ladi ya'ni har bir qatlam kiruvchi ma'lumotni o'z ichiga oladi,tahlil qiladi va keyingisiga uzatadi.

Misol:Bu yo'nalish kompyuter yoki telefonda biron ilovaga registratsiya vaqtidasiz robotligizni tekshiramiz deb bir nechta rasmlarni ko'rsatadi va ulari birlashtirib ,agar to'g'ri bo'lsa keyingi bosqichga o'tkazadi .Bu yo'nalishga oid turli xil o'yin ilovlari Play Marketda mavjuddir.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP-Natural Language Processing)

Bu yo'nalish ingliz tilida speakingni oshirish uchun Hello Talk,AL ,Elsa Speak va boshqa turli xil dasturlarga o'xshaydi.Ya'ni biron so'zni noto'g'ri talaffuz qilsak to'g'ri talaffuz qilib gapirilgandan keyin takrorlaydi.

Kompyuter ko'rinishi (Computer Vision)

Kopmyuter ko'rinishi-bu kopmyuterlar va dasturlarning rasm yoki video formatda ko'rinishi va tahlil qilishidir.

Misol:Plastik karta registratsiya qialotgan vaqtda yuz rasmini so'raydi shaxsni tasdiqlash uchun.

1.Zamonaviy texnologiyalar va robotexnika samaradorligi:

Ishlab chiqarish sanoatida sun'iy intellektni zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirilgan robotexnikalar orqali qo'llanilib mahsulot va Tovar sifatini yanada yaxshilash va mehnat bozorida raqabotlashuvchi Tovar va mahsulotlar yaratish ,ishlab chiqarish va ishlab chiqarish samaradorligini yanada sezilarli darajada oshirish mumkin .

Misol:Sodda qilib aytilganda tikuvchida zamonaviy tikish texnikalari bo'lsa ,uning kiyimlari sifatini va ish samaradorligini oshirib,mahsulotlari mijozlariga ma'qul keladi va mijozlari ko'payib boradi,tikuvchini daromadini oshirib ,ushbu daromadni kichik bir biznesga sarflash mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va nuqsonsiz tovarlar ishlab chiqarishga sabab bo'ladi.

Mahsulot sifatini yanada yaxshilab ,nazoratni avtomatik tarzda amalga oshiradi.

Texnik xizmatlarni avtomatik yacshilaydi va prognoz qiladi.

2.Sun'iy intellektni mehnat bozoriga va bandlikka ta'siri:

Sun'iy intellektni mehnat bozori bandlikka ijobiy va salbiy ta'sirlari mavjud bo'lib quyida misollar bilan keltirilgan.

Ijobiy tomoni:Yangi kasblar va yangi ish o'rin obyektini paydo bo'lib kelmoqda.

Kasblar :ma'lumotlar tahlilchisi,SI muhandisi,dasturchi va h.k.

Salbiy ta'siri:Zamonaviy texnologiyalar va robotexnikalar ko'payib ishlab chiqarishda ish o'rinlari qisqarmoqda bu esa oilaviy budget taqlilchiligiga olib keladi va birgina oila bilan ham jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Chunki ,oila boquvchisi ishsiz bo'lsa unga nafaqa beriladi, bu pullar esa davlat budjetiga bog'liqdir.

3.Moliyaviy taraflama samaradorligi:

Sug'urta kompaniyalari , banklar va tadbirkorlik faoliyati ko'rsatuvchi do'konlarda aks ettiriladi va sun'iy intellekt keng miqyosda foydalaniladi:

Firibgarlik holatini aniqlash(bankdan qarz olish va korrupsiya holatlari,hakkerlar va virtual o'g'riliklarni oldini olish)

Kreditga layoqatli ekanligini aniqlash (kredit oluvchi shaxs kredit olganidan keyin ,uni to'la olishi haqidagi ma'lumotlar ,kredit oluvchi shaxs to'la olmasa uning shaxsiy mulkini musodara qilish uchun ,shaxsiy ma'lumotlar beriladi)

Moliyaviy bozorlarni tahlil qilish va tadbirkorlik obyektlarini aniqlash uchun (asosan tadbirkorlik obyektlaridan soliq olish uchun yashirin iqtisodiyotni oldini olish uchun)

4.Texnologiyalar samaradorligi qishloq xo'jaligida:

SI yordamida:

Hosildorlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan fermerlar foydalanishi.

Suv resurslaridan foydalanish samarasini oshiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi.

5.Savda va marketing savdo tizim samaradorligini yaxshilash uchun samarali yordam beradi.:

Elektron savdo orqali va electron savdo platformalari orqali savdo darajasini yanada oshirish,hamda savdo balansi o'sishiga samarali yordam beradi.

Ombor va logistika tizimini samarali avtomatlashtiradi.

6.Sun'iy intellekt rivojlanishi oqibatida iqtisodiy xavf-xatarlar:

Sun'iy intellekt rivojlanishi samarali foyda beradi va uning salbiy ta'sirlari ham mavjuddir ,quyida uning bir qancha turlari sanab o'tiladi.

Mehnat bozorida nomutonositlik.

Sun'iy intellekt yordamida noto'g'ri qaror qabul qilish .

7.Raqobatbardoshlikni oshiradi:

Mehnat bozorida mahsulot sifati va qulay narxi bilan mahsulotlar raqobatlashadi va yanda tadbirkorlar sifatli tovarlar ishlab chiqaradi.

Kompaniyalar sun'iy intellekt yordamida mahsulot va xizmatni individual amalga oshiradi.

Bu esa mijoz talabini yanada qoniqtirish va mehnat bozorida namunali o'rin egallashga yordam beradi.

8.Xulosa va tavsiyalar:

Sun'iy intellekt foydalanish jarayonida mehnat bozorida balki barcha tarmoqlarda samarali o'zgarishlar ro'y beryapti va salbiy tomonlari ham mavjuddir .Quyida uning bir qancha turlarini sanab o'tiladi.

Texnologiyalarni to'g'ri qo'llash.

Ish samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalari kirib kelishi oldi ,xodimlarni malakasini oshirish.

Sun'iy intellekt texnologiyalarni xodimlarga moslashtirish.

Davlat siyosatida raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash.

Xulosa: Sun'iy intellekt har bir sohaga samarali o'zgarishlar olib keladi va samaradorlik,mehnat bozorida raqobat va bir qancha ijobiy yo'nalishlarni qamrab oladi .Biroq ,bu samarali va zamonaviy texnologiyalar faqat samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirib qolmay,mehnat bozorida qo'llanilishi maxfiylik,xavfsizlik,ijtimoiy-o'zgarishlar va bir qancha

salbiy oqibatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, mehnat bozori sun'iy intellekt, robotexnika va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdan oldin salbiy tomonlarni hisobga olib foydalanishi zarur, garchi sun'iy intellekt texnologiyalari ijobiy tomonlari ko'p bo'lsa ham, mehnat bozorida muvozanat buzilishini olib keladi va bir qancha dolzarb muammolarga olib kelib, davlat budjet sistemasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W. W. Norton & Company.
2. Kaplan, J. (2016). *Artificial Intelligence: What Everyone Needs to Know*. Oxford University Press.
3. Bughin, J., Hazan, E., Ramaswamy, S., Chui, M., Allas, T., Dahlström, P., Henke, N., & Trench, M. (2017). *Artificial Intelligence: The Next Digital Frontier?*. McKinsey Global Institute.
4. Bessen, J. E. (2019). *AI and Jobs: The Role of Demand*. NBER Working Paper No. 24235.
5. OECD. (2021). *AI in Business and Finance: Impacts, Applications and Policy Considerations*. Organisation for Economic Co-operation and Development.
6. World Economic Forum. (2020). *The Future of Jobs Report 2020*. Retrieved from: www.weforum.org.



INNOVATIVE
ACADEMY